



IMPLEMENTATION OF THE LAW “ON TRANSITION TO UZBEK ORTHOGRAPHY BASED ON LATIN SCRIPT” DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Ahmadjon Norbekov
Independent Researcher
Navoi State University
Navoi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbek orthography, state language, Latin script, orthographic literacy, literary language.

Received: 04.04.26

Accepted: 05.04.26

Published: 06.04.26

Abstract: This article examines the significance of implementing the law “On the Transition to the Uzbek Orthography Based on the Latin Script” during the years of independence in the political and social life of Uzbekistan. It also analyzes the existing problems of that period and the solutions to address them.

MUSTAQILLIK YILLARIDA “LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O‘ZBEK IMLOSIGA O‘TISH TO‘G‘RISIDA”GI QONUNNING IJROSI

Ahmadjon Norbekov
Mustaqil izlanuvchi
Navoiy davlat universiteti
Navoiy, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: O‘zbek imlosi, davlat tili, lotin yozuvi, imloviy savodxonlik, adabiy til.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek imlosiga o‘tish to‘g‘risida”gi qonun ijrosining O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy hayotidagi ahamiyati hamda ushbu davrda mavjud vaziyat yuzasidan vujudga kelgan muammolar hamda ularning yechimlari haqida fikr yuritilgan.

ИСПОЛНЕНИЕ ЗАКОНА “О ПЕРЕХОДЕ НА УЗБЕКСКУЮ ОРФОГРАФИЮ НА ОСНОВЕ ЛАТИНСКОЙ ГРАФИКИ” В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Ахмаджон Норбеков

Самостоятельный соискатель

Навоийский государственный университет

Навои, Узбекистан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: Узбекская орфография, государственный язык, латинская графика, орфографическая грамотность, литературный язык.</p>	<p>Аннотация: В данной статье рассматривается значение исполнения закона “О переходе на узбекскую орфографию, основанную на латинской графике” в годы независимости в политической и социальной жизни Узбекистана, а также анализируются существующие в тот период проблемы и пути их решения.</p>
--	---

Kirish. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida davr o‘tishi bilan yozuvlar o‘zgarib, ijtimoiy hayotga bog‘liq ravishda ikkinchisi bilan almashib turgan. XIX-XX asrlarga kelib yer yuzining rivojlangan qismi imlosida asosan to‘rt yo‘nalish bor edi. Kunchiqardan Yaponiya, Koreya, Xitoy xalqlari perogliflarda, Yevropa lotin alifbosida yozdi. Yevropa-Osiyo qismi esa Chor Rossiyasi va Sovetlar imperiyasi tazyiqi ostida rus-kirilitsa alifbosiga o‘tdilar. Shu o‘rinda aytish lozimki, Yevropa xalqlari tushungan holda lotin alifbosini erkin qabul qilib birlashgan, kunchiqardagilar o‘z imlosida qolgan bo‘lsalar, Arab dunyosi va Afrikaliklarning asosiy qismi arab imlosida qolsalar, sovetlar diyoridagi arab imlosida yozgan xalqlar dastlab lotin alifbosiga o‘tkazildilar. Bu zo‘rlik ma‘lum darajada turkiy xalqlar uchun foydali edi. Chunki ular endilikda bu yozma bilan Yevropaga chiqa olishi mumkin edi. Lekin bu holatning o‘z siyosatlaridagi muhim xato ekanini anglab qolgan markaz turkiy xalqlarning birlashishidan cho‘chib, tezlikda Sovet Ittifoqida yashayotgan turkiy xalqlarni 1940-yilda kirillga o‘tkazib ularni qardoshlaridan ajratib tashladilar va “bo‘lib tashla hukmronlik qil” aqidasi bo‘yicha ish tutdilar. Natijada biz merosimizni o‘rganishdan mahrum bo‘lishimiz bilan birgalikda tilimizni ham unuta bordik. Ma‘lumki, yozuv qanday bo‘lishidan qat’iy nazar millat tovush tizimini to‘g‘ri ifoda qilmog‘i lozim. Mustaqilligimizgacha bizning yozuvimizda bir qancha kamchiliklar mavjud edi.

Imlo xususidagi bu kamchiliklar va muammolar mustaqillikka erishganimizdan keyin hal qilinishi kerak edi. Ayni kamchiliklarni bartaraf etmasak faqat til taraqqiyotidagina emas, umuman tafakkur ravnaqida orqada qolishimiz aniq edi. Chunki agar til aql kaliti bo‘lsa, alifbo noqisligi oxir-oqibat milliy ong rivojiga keskin halaqit qiladi.

Xullas, mustaqilligimizning ilk davrlarida alifboni isloh qilishning ikki yo‘li turar edi: yo o‘sha eski kirill yozuvini saqlab qolib, takomillashtirib, ya’ni undagi kamchiliklarni yo‘qotish, yoki bira to‘la yangi alifboga o‘tish lozim edi. Kirill yozuvini saqlab qolish to‘g‘ri yechim bo‘la olmas edi. Ilmiy tarafdin isloh qilindimi xalq baribir ko‘p narsani yangidan o‘rganishga majbur. Shunday ekan, agar afzal tarafi bo‘lsa bir yo‘la yangi yozuvdagi alifboga o‘ta qolgan tuzukroq. Ma’naviy tarafdin hali ham xalq sifatida o‘z taqdirimiz bilan bog‘liq masalalarni hal etolmay yurgan bo‘lar edik [1; 12-b].

Muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilinarkan, mazkur masala yuzasidan Jomonov R. [1], Muxtorov A. [2], Boltayev M. [3] hamda Sultonmurod Olim [4] singari olimlar tadqiqot olib borishgan. Tadqiqot mustaqillik yillarida “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek imlosiga o‘tish to‘g‘risida”gi qonun ijrosining O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy hayotidagi ahamiyatiga doir tadqiqotchi-olimlarning ilmiy materiallari hamda ushbu davr yuzasidan ochiq manbalariga joylashtirilgan ma’lumotlar asosida olib borilgan. Maqolada tarixiy-xronologik, vorisiylik, izchillik, qiyosiy-tarixiy tahlil, tarixiylik va xolislik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Natijalar. Iqtisodiy tarafdin kirill yozuvida qolish bizni matbaachilik, kompyuter va yozuv mashinkalari bobida birgina mamlakat monopoliyasiga qaram qilib qo‘yaverar edi. Biz bu sohada jahon bozoriga chiqolmas, yoki faqat Rossiya ishlab chiqargan, yoki ruslar uchun ishlab chiqarilgan tovarlarni olishga majbur bo‘lardik. Bu xohlagan mahalda iqtisodiy yutqazish ro‘y berishi tayin deganidir.

Demak, madomiki yozuv isloh qilinadigan bo‘lsa, bir yo‘la yangi alifbo joriy etib qo‘yaqolgan har jihatdan afzal edi.

Yangi yozuvga o‘tishning ham ikki yo‘li oldimizda turar edi. Yo arab yozuviga asoslangan alifboga, yoki lotin yozuvdagi yangi o‘zbek alifbosiga o‘tish lozim edi. Arab yozuviga o‘tish yana orqaga ketish bo‘lar edi. Birinchidan, bu yozuv arab tili xususiyatlaridangina kelib chiqib yaratilgan. U o‘zbek tili uchun hech ham qulay emas. Unda faqat arab tilidan kirib kelgan so‘zlardagi xos tovushlarnigina ifodalaydigan amalda tilimiz uchun ortiqcha bo‘lgan bir necha harf bor. Ikkinchidan, garchi ming yillik yozma merosimiz shu yozuvda bo‘lsa ham, u tilimiz xususiyatlarini aks ettirish imkoniga ega emas. Shuning uchun zamonaviy alifboga o‘tavergan ma’qul edi. Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosiga o‘tishning aynan qanday afzalliklari bor edi? Siyosiy jihatdan bu islohot xalqimiz madaniy hayoti, aqliy ravnaqi bilan bevosita bog‘liq masalani kechiktirmay hal etayotganimizni va bunga istiqloq imkon berganini anglatadi. Ma’naviy tomondan xalq chinakamiga o‘z taqdiri bilan bog‘liq har qanday masalani

hech kimning qosh-qavog'iga qaramasdan hal eta olish imkoniga egaligini shu yangi alifboni joriy etish orqali ham kuchliroq his etishi tayin.

Shuning uchun yurtimiz istiqloлга erishgach, e'tibordan chetda qolgan ko'plab sohalar kabi millat kimligini ko'rsatib turuvchi yozuv masalasini ham qayta ko'rish imkoni tug'ildi. 1993-yil sentyabr oyida o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n uchinchi sessiyasida lotin grafikasiga o'tish to'g'risida qonun loyihasi qabul qilindi. Bu qonunning qabul qilinishi tasodif emas. Chunki avvalgi yozuvimizning qator kamchiliklari tilshunos olimlar, mutaxassislar tomonidan allaqachon isbotlab berilgan edi.

Dastlab, farmonga asoslanib barcha tashkilot, korxonalar, muassasalar, bilim dargohlari o'z vazirliklari chiqargan qaror va topshiriqlariga ko'ra 1994-1995-yillardan boshlab 2000-yilgacha lotin grafikasidagi o'zbek yozuviga to'liq ko'chish lozim deb qaraldi. Lekin keyinchalik ba'zi sabablarni hisobga olib bu muddat uzaytirildi [2; 2-b].

Mazkur yangi o'zbek yozuvining 1929-1940-yillar davomida qo'llangan lotin grafikasidagi alifbodan farq qiladigan tomonlari bor, albatta. Ko'pgina belgilar-harflarning shakli ham mazmun talaffuzi ham farq qilinadi. Ayniqsa, lotin tiliga xos bo'lgan alifbo belgilar, jumladan, nemis, fransuz, ingliz va boshqa tillarning yozuvlari yangi o'zbek yozuviga o'xshasada, ulardagi harflar talaffuz va ma'no tomonidan ajralib turadi. Xuddi ana shu farqni tushunmagan yoki tushunishni xohlamagan ba'zilar yangi lotin grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi yuzasidan o'zbek tilshunoslari emas, balki lotin tili mutaxassislari mashg'ulot olib borishi kerak degan noto'g'ri fikrga borishmoqda. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi o'zbek tili qonun qoidalariga bo'ysunadi. Vazirlar Mahkamasida tuzilgan Til komissiyasi keyinchalik shu alifbo asosida imlo qoidalarini belgilash guruhini ishlab chiqdi. 1994-yil 6-7-iyulda "Xalq so'zi" va "Ma'rifat" ro'znomalari orqali "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" loyihasi keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi va u ijobiy bahosini oldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-may qaroriga ko'ra, o'zbek yozuvi 2005-yilgacha lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosi va imlosiga to'la ko'chirilishi kerak "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" (1995), "O'zbek tilining imlo lug'ati" (1995), "Alifbe" (1996) kabi bir qator qo'llanmalar nashr etildi va etilmoqda. Maktablarning beshinchi sinflariga qadar o'quv jarayoni yangi yozuvda olib borilayapti, oliy o'quv yurtlarida ham yangi yozuv bo'yicha yangi saboqlar uyushtirilgan.

Davlat tili haqidagi qonunni hayotga tadbiiq qilishni nazarda tutib, O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi va boshqa vazirliklarga qarashli muassasalar, umumta'lim maktablari, oliy va o'rta maxsus bilimgozlarning darslar o'zbek tilida olib boriladigan bo'limlarida "Lotin alifbosidagi

o‘zbek yozuvi” asosiy o‘quv fani sifatida rejaga kiritiladi. Muassasalarda dastur asosida maxsus kurslar tashkil qilingan va bosqichma-bosqich o‘rgatib borilmoqda. Yangi o‘zbek alifbosini faqat o‘zbek tili mutaxassislarigina o‘rgatishi kerak. Chunki ular mutaxassis sifatida har bir nutq tovushlarini, harfni o‘zbek tili imlo qoidalari asosida o‘rgatish malakasiga egadirlar. Yangi o‘zbek alifbosini o‘rgatish oldidan bu sohada dars o‘tuvchi, yozuvni o‘rgatuvchi o‘qituvchilar qisqa muddatli malaka kurslarida o‘qitilgan edi. Lotin yozuviga o‘tishimiz birinchidan tilimizga xos bo‘lgan tovushlar va ularning yozuvdagi ifodasi orasidagi mutanosiblikni ta’minlashga xizmat qiladi [3; 15-16-b].

Ilmiy tarafdin esa bir necha fazilati bor. Birinchidan, alifbo ixchamlashadi. Yigirma olti harf, uchta harflar birikmasi jami yigirma to‘qqizta belgi bor, xolos. Oldingi alifbodan oltita belgi kam. Bu juda katta yutuq. Ikkinchidan, “ng” bir mustaqil tovush sifatida alifboga kiritildi. Endi uni maktabda o‘rganish ham, to‘g‘ri talaffuz qilish ham osonlashadi. Shu tovush bilan bog‘liq bir masala bor: nega “ng” uchun alohida harf emas, n va g undoshlari qo‘shilmasi olindi? Arab yozuvidagi alifbomizda ham shunday yo‘l tutilgan. Bu bejiz emas. “Men” olmoshiga yo‘nalish kelishigi qo‘shilmasi qo‘shilganda “menga” hosil bo‘ladi. Biroq endi she‘riy matnlarda ba‘zan vazn taqazosiga ko‘ra bu so‘zni men-ga, ayrim hollarda esa me-nga tarzida o‘qishga to‘g‘ri keladi. Ba‘zan vazn bir misraning o‘zida aynan takrorlanib kelgan bu so‘zning ana shunday o‘qilishini talab qilib qolishi mumkin. Agar ng uchun alohida belgi olinganda edi bir so‘zni bir misrali ikki xil yozishga majbur bo‘lar edik [4; 3-b].

Lotin alifbosini qabul qilganimizdan keyin bu yozuvni o‘rgatuvchi kursning vazifasi va maqsadi o‘quvchilar, talabalar va tinglovchilarni lotin alifbosi asosidagi o‘zbek yozuvida yoza oladigan va o‘qiy oladigan qilishdir. Lotin alifbosidagi o‘zbek yozuvi umumta’lim maktablari, oliy va o‘rtamaksus o‘quv yurtlari, pedagogika va hunar-texnika bilimgozlarida o‘rganiladi. Amaliy mashg‘ulotlar asosan bir guruhni ikkiga ajratgan holda olib borilmoqda. Amaliy mashg‘ulotda talabalar bilan doskada yozish, matn o‘qish husnixat mashqi, diktantlar, bayonlar olish, kirill yozuvidagi ayrim badiiy asarlardan olingan parchalami lotin-o‘zbek yozuviga aylantirish, o‘tilganlami takrorlash va uyga berilgan topshiriqlarni nazorat qilish bilan shug‘ullanadi. Mashg‘ulot tugugandan keyin imtihon olinadi. Imtixonlardan oldin har bir talaba yoki tinglovchidan ularning bilimlarini sinash uchun o‘quv jarayonida berilgan vazifalarni bajarganligini ko‘rsatuvchi qirq-ellik betdan iborat yozuv mashqi daftarlari yig‘ib olinadi va tekshirib chiqiladi.

Shu kunlarda Respublikada ikki yozuvlilik vaziyati yuzaga kelgan deyishga to‘la asos bor. Bunday sharoitda rus va lotin grafikalariga asoslangan o‘zbek yozuvlarining imlo me‘yorlarini

hamda grafik xususiyatlarini o'zaro qiyoslab, shu ikki yozuv tizimlari o'rtasidagi umumiy va xususiy jihatlardan xabardor bo'lish o'quvchilarning amaliy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Shuning uchun bu ikki yozuv alifbolarining o'zbek adabiy tili unli tovushlariga hamda boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar tarkibidagi unliarga aloqador qismlarini o'zaro qiyoslashga harakat qilamiz.

Kirill grafikasi asosidagi o'zbek yozuvida o'zbek adabiy tilining oltita unli fonemasi uchun o'nta harf lotin grafikasiga asoslangan yangi o'zbek alifbosida esa shu olti unli uchun oltita harf belgilangan. Shulardan Ye unlisi rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvida E va Ye harflari bilan lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvida esa faqat Ye harfi bilan ifodalanadi. A unlisi rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvida A va Ya harflari bilan ifodalanadi. Lotin grafikasi asoslangan yangi o'zbek yozuvida esa A unlisi bilan barcha pozitsiya va barcha so'zlarda faqat A harfi bilan ifodalanadi. U unlisi rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvida U va Yu harflari bilan ifodalanadi. Bunda Yu harfi bilan rus tilining U fonemasi ifodalangan. Lotin grafikasiga asoslangan yangi o'zbek yozuvida esa U unlisi barcha hollarda bitta U harfi bilan ifodalangan. O' unlisi rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvida O' harfi bilan, lotin grafikasi asosidagi o'zbek yozuvida esa O' harfi vositasida ifodalanadi. O unlisi rus va lotin grafiklari asosidagi o'zbek yozuvlarining ikkalasida O harfi bilan ifodalanadi. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvida O harfi ruscha leksik o'zlashmalardagi o'rta keng, lablangan O unlisini ham ifodalaydi. Bu xususiyat lotin grafikasiga asoslangan o'zbek alifbosidagi O harfiga ham xos. Rus tilining o'rta keng O unlisi leksik o'zlashmalarda Yo harfi bilan ham ifodalanadi. Lotin grafikasiga asoslangan yangi o'zbek yozuvida bunday pozitsiyada ham O harfi qo'llaniladi. Rus grafikasidagi o'zbek yozuvida Ye, Yo, Yu, Ya harflari YE, YO, YU, YA tovushlari birikmasini ham ifodalaydi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvida esa har bir tovush alohida harf bilan ifodalanadi.

Muhokama. Keltirilgan qiyosiy tavsiflardan ko'rinib turibdiki, rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuviga rus grafikasi va orfagrafiyasi talablari maksimal singdirilgan bo'lib, bu hol o'zbek yozuvining grafik xususiyatlarini ancha murakkablashtiradi. Xususan, ye, yo, yu, ya harflari ikki tovush birikmasini ifodalovchi sintetik grafemalarga aylangan, natijada so'zning optik-grafik shaklida tovush-harf o'rtasidagi simmetriya buzilgan.

Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvida sinonim grafemalar yo'q, bu hol ham o'zbek yozuvining grafik tizimini bir qadar soddalashtiradi. Bevosita o'zbek tilining o'z so'zlari tarkibidagi fonerik birliklarni yozuvda aniq-ravon ifodalash imkonini yaratadi, binobarin o'zbek yozuvining milliy pozitsiyalarini mustahkamlaydi. Biroq, o'zbek tiliga rus tilidan o'zlashgan so'zlarning lotin grafikasiga asoslangan yangi o'zbek yozuvidagi grafik qiyofasi va imlo

me'yorlari masalasiga kelsak, bu sohada bir qator munozarali holatlar paydo bo'lganini ko'ramiz. Bunday holatlarni o'zbek yozuvidagi jiddiy bir nuqson deb baholash to'g'ri bo'lmas, chunki yangi alifbo va grafikani shakllantirishda asosiy e'tibor yozuvni milliy jihatlarini mustahkamlashga qaratilgan, oqibatda ruscha leksik o'zlashmalarning o'zbek yozuvida berilishi masalasi ham shu prinsipga bo'ysundirilgan. Biroq shunday bo'lgan taqdirda ham, bu masalaning ayrim jihatlarini hech bo'lmaganda imlo qoidasi doiralarida qayta ko'rish kerak bo'ladi.

Yangi o'zbek alifbosidagi bosh harflar masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, o'zbek tili va yozuvi tarixiga e'tibor qilmoq zarur. Bizga tarixdan arab yozuvi uzoq yillar mobaynida xizmat qilib kelganligi, aynan shu yozuvda dunyoga mashhur asarlar yaratilganligi ma'lum. Arab yozuvining o'ziga xos xususiyatlari go'zalligi, murakkabligi, mushohadaga chorlovchi jihati, jumboqli holatlari haqida ko'p yozilgan. Lekin arab yozuvlarining bosma va yozma shakllari, bosh va kichik harflari to'g'risida deyarli munozara bo'lmagan. Chunki arab yozuvida harflar faqat bir shaklda yozilishi tufayli bunga ehtiyoj bo'lmagan. Bu holat hatto isloh qilingan arab alifbosida ham qayd etilishini Turkistonda 1921-yil yanvarda bo'lib o'tgan til-imlo qurultoyida: "Yozuvlarimizning barchasi birgina shaklda (bosh harf bilan) yozulsunlar" [5; 4-b] deb qaror qabul qilinishi ham tasdiqlaydi. Bu qarorda harflarning faqat birgina shaklda yozilishi ta'kidlangan.

Ma'lumki, XX asrning o'rtalaridan boshlab arab harflarini lotin harflari bilan almashtirish masalasi kun tartibiga qo'yila boshlangan. 1926-yil fevral-mart oylarida Bokuda bo'lib o'tgan turkologiya qurultoyidan keyin esa O'zbekiston ham yangi alifboni joriy etish masalasi jadallashdi. Jumladan, 1926-yil 19-mayda O'zbekiston yangi alifbochilarining o'lka kengashida yangi alifbo qabul qilindi. Ammo mazkur loyihada ham bosh harflar haqida so'z yuritilmagan edi. Shu yilning 11-avgustida Samarqandda chaqirilgan kengashda loyihaga tuzatishlar kiritilgan. 1927-yil 3-iyunda Bokuda "Yangi alifbo markaziy qo'mitasi" ning birinchi plenumida turkiy xalqlarning yangi alifbo loyihalari birlashtirilib birlashgan alifbe qabul qilingan bo'lsa-da, bosh harf masalasi hal qilinmay, har bir jumhuriyatga bosh harf masalasida ixtiyoriylik berildi.

Xulosa. Lotin yozuviga asoslangan alifboning qabul qilinishi Respublikamiz ijtimoiy hayotida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Yozuv to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi bilan milliy bayrog'imiz, milliy gerbimiz, milliy madhiyamiz qatoriga milliy yozuvimiz ham qo'shildi. Huquqiy demokratik davlat qurishdek mas'uliyatli bir jarayonda, ma'rifatli jamiyat sari qadam tashlayotgan bir pallada imlo masalasi ahamiyatlidir. Imlo qoidalarining ijtimoiy hayotdagi o'rni yosh avlodga muntazam tarzda singdirib borilishi bilan oshib boradi. Imlo savodxonligi har bir shaxsda muttasil va muntazam bo'lishi lozim. Ayni paytda imlo faqat shaxsiy masala bo'lib

qolmasligi, uning ijtimoiy xarakterdaligi, bevosita jamiyat manfaatlariga daxldor muammo ekanligini anglash zarur. Adabiy til va yozuv millatimizning yuzi, ko'zi bo'lib qolishi darkor, chunki imloviy savodxonlik faqat bugungi kun bilan bog'lanib qolmaydi. Biz ertangi kunimiz uchun mas'uliyatli ekanimizni bir daqiqa ham unutmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ravshan Jomonov. "Alilbo, yozuv va imlo qoidalari", Ma'rifat, 2006-yil 8-mart.
2. Abdujabbor Muxtorov. "Yozuv-tarix ko'zgusi", Zarafshon, 1994-yil 26-noyabr.
3. Boltayev M. Lotin alilbosi - madaniyatimiz poydevori. Samarqand, 1994-yil 6-yanvar.
4. Sultonmurod Olim. Biz nega lotin yozuviga o'tayapmiz? "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2000-yil 20-oktyabr.
5. 1921-yil yanvarda bo'lgan birinchi o'lka o'zbek tili va imlo qurultoyining chiqargan qarorlari. Toshkent: Turkiston jumhuriyatining davlat nashriyoti, 1922-yil.